

PIYOZNING ZARARKUNANDALARI VA KASALIKLARGA QARSHI KURASHLARNI O`RGANGAN OLIMLAR

D.Hayitboyev

Yuldashev Suxrobjon

1Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va
agrotexnologiyalar instituti assistenti,

2Qorqalpog`iston qishloq xo`jaligi va
agrotexnologiyalar instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya; Piyozni ekish usullari va ularning afzaliklari hamda ularni yangi usularda hosildorligini ko`paytirish usullari.Urug` sarfi va ularni ko`chatlari orqali ekish samaradorliglari.

Kalit so`zlar. Piyozni ekish usullari, ekish muddatlari, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xafsizliklarni taminlash hamda tuproq sutrukturasini yaxshilash.

Ilmiy manbalarga ko'ra oddiy piyoz va sarimsoq piyoz ekinlari 95 turdan ortiq zararkunandalar bilan zararlanadi Shulardan 10-15 turi iqtisodiy sezilarli darajada zarar keltiruvchi asosiy zararkunandalar hisoblansa, qolgan turlari bu o'simliklari qo'shimcha oziq sifatida zararlaydi. Bu turlar ham ularga qulay muhit paydo bo'lgan vaqtlarda o'simliklarni zararlab hosildorlikka, hosil sifatiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'ladi shu munosabat bilan bu turlar biolgiyasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy zararkunandalar sifatida piyoz poya nematodasi, piyoz yashirin xartumli qo'ngizi, piyoz pashshasi, piyoz vizildoq pashshasi, piyoz kuyasi, piyoz ildiz kanasi, tamaki tripsi, g`ovaklovchi pashshalar, simqurt va soxta simqurtlar, buzoqboshlar, kemiruvchi tunlam qurtlari, gamma tunlami, karam tunlami kabilar ta'kidlanadi

Mixoilov fikriga ko`ra ukrainada piyozdosh sabzavot ekinlarining zararkunandalari tur tarkibi 35 tadan ortiq bo`lib ulardan asosan 11 turi kuchli. Ozarbayjonda 20 turga mansub zarakunandalar piyozdosh sabzavotlarni zararlashi kuzatilgan. Piyoz burgasi, piyoz kanasi va tamaki tripsi bu agrotsenozlarda butun mavsum davomida rivojlanib zarar yetkazadi. Buzoqbosh, turli pruslar, kuzgi tunlam va karadrina kabi zararkunandalarning ayrim yillari, ayniqsa urug`lik ekinlarda ko`plab rivojlanishi oqibatida hosildorlik 40-100 % yo`qotilgan. Vengriyada piyoz barglarini zararlovchi asosiy zararkunandalar piyoz uzunburuni, govaklovchi pashsha va tamaki tripsi hisoblanadi.

Esikov malumotlariga ko`ra markaziy osiyoda o`simta pashshasi, vizildoq pashshalar, piyoz kanasi, tamaki tripsi, piyoz pashshasi, piyoz ildiz kanasi, tamaki tripsi, vizildoq pashshalar, piyoz pashshasi, piyoz yashirin xartumli qungizi, piyoz poya nematodasi, vizildoq pashshalar kabi oddiy piyoz va sarimsok piyozning ixtisoslashgan zararkunandalari uchrashi xaqida ma'lumot berishgan.

Qozog`istonda ilmiy izlanishlar olib borgan piyozdosh sabzavotlar tamaki tripsi, piyoz poya nematodasi, piyoz yashirin xartumli qo`ngizi, piyoz pashshasi, piyoz vizildoq pashshasi, beda tunlami kabi zararkunandalar bilan zararlanishini kuzatishgan.

Yaxontov ma'lumotida ko`ra piyoz ekinlari zararkunandalaridan eng ko`p tarqalgani va eng katta zarar yetkazadigani tamaki tripsi hisoblanadi. Tamaki tripsi - Thrips tabaci L. - 0,8 - 0,9 mm kattalikdagi mayda hasharot. Tanasi cho`ziq, urg`ochisida uzun, yirik, arrali tuxum kuygichi bor. Yetuk hasharotning ikki juft (chekkalari hoshiyali) tor qanotlari bor. Og`iz apparati sanchib surishga moslashgan, kalta bo`lib rivojlanadi. Abdulmalikov X.D ma'lumotlar bo'yicha tuxumi loviyasimon shaklda, oq sut rangda, uzunligi 0,35 mm, eni 0,25 mm. Tripsning lichinkasi imagoga qaraganda ochroq tusli, qanotsiz, urg`ochilarida tuxum qo`ygich bo`lmaydi, kuzlari 3-4 fasetkalardan iborat burtchalari 6 bo`g`imli. Asosan qo`ngir tusli tripslar

omborxonalarda saklanayotgan piyoz po'sti oralarida, dalada o'simlik qoldiqlari ostida, tuproq yoriqlarida, kuzgi piyoz tuplarida qishlaydi.

Derbeneva A.S malumotlarga ko'ra tripslar o'rtacha havo harorati $+10^{\circ}\text{C}$ ga yetganda qishlovdan chiqqa boshlaydi. Harorat $+22-25^{\circ}\text{C}$ ga, havo namligi 40-50 % ga yetganda esa kishlovdan chikish yoppasiga turib oladi. Havo haroratining $+25-30^{\circ}\text{C}$, nisbiy namlikning 80 % atrofida bo'lishi tamaki tripsi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Shukuriy A.S aniqlashicha birinchi yilgi piyozlarda tripslar asosan barg qo'ltiqlariga joylashib, barg shirasini surib zararlaydi. Zararlangan barg to'qimasi rangsizlanib oqish kulrang dog'lar paydo bo'ladi, bu dog'larda mayda qora nuqtalar - tripe ekperimentlarini kuzatish mumkin, kuchli zararlanganda esa ular bir-biriga qo'shilib ketadi, barglar bujmayib, sargayib uchidan quriy boshlaydi, o'simlik rivojlanishi sekinlashib, piyozboshlar mayda bo'lib qoladi. Urug'liq piyozda esa tripslar avval barglarni zararlab, keyin gulga ko'chib o'tishadi va urug' hamda meva bandlarini surib oziqlanadi. Natijada bu gullardan urug' olishning iloji bo'lmaydi yoki olingan urug'lar puch va unish darajasi past bo'ladi.

Urgochi trips 20-25 kun yashab, shu vaqt mobaynida tuxum ko'yg'ichi yordamida piyoz bargi po'stini tirnab 1 tadan jami 100 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumlardan uch – to'rt kundan so'ng lichinka chiqib oziqlana boshlaydi. 4 marta tullagach lichinka yetuk hasharotga aylanadi.

Yaxontov A.B, Derbeneva M.Sh. O'zbekiston sharoitida trips yetti - sakkiz marta avlod beradi. Bir avlodning rivojlanishi uchun 15-30 kun vaqt ketadi tuxum davri - 3 - 6 kun, lichinkalik davri - 6 - 8 kun, pronimfa davri - 2 - 3 kun, nimfalik davri - 1 - 7 kun.[16 –b.]

Nuradinova A.G fikriga ko'ra hosil yigib olish davrida ob-havo iliq, trips rivojlanishi uchun qulay bo'lsa tripslar karam, bodring kabi sabzavotlarga va turli begona o'tlarga ko'chib o'tadi. Kalay sharoit bo'lganda tamaki tripsi soni 1 ta

o`simlikka 1000 tadan oshiq bo`lishi kuzatilgan. Tamaki tripsi o`rtacha sutkalik havo harorati 11,6 - 12,9°C bulganda jag-jag, yovvoyi turp, kurtena, kuytikan, kuypechak kabi begona o`tlarda, o`rtacha sutkalik havo harorati 17,8 - 18,2°C, havo namligi 63,6 - 64,8 % bo`lganda sabzavotlarda, so`ngra o`rtacha sutkalik havo harorati 20,4-22,8°C ga, nisbiy namlik 57,2 - 62,3 % ga yetganda esa tripslar artishok, sherolchin, sarsabil, otquloq, yerqalampir kabilarda yoppasiga ko`payadi. So`ngra o`suv davri oxirida oktyabr oylarida trips yana begona o`tlarga ko`chib o`tar ekan. Tripslarning tez va ko`plab rivojlanishida begona o`tlarning ham uziga xos ahamiyati bor.

Obidjonov kuzatgan tripslarning eng ko`p soni oddiy surepka va dorivor moychechakda piyozdosh sabzavotlarning asosiy zararkunandalaridan biri piyoz pashshasidir. Piyoz pashshasi - *Delia antiqua* Meig. - 6-7 mm kattalikdagi sarg`ish kulrang tusdagi pashsha, oyoqlari qora tusda. Erkak pashshaning orqa tarafida sezilar-sezilmas qoramtir chizigi bor. Tuxumi oqish, chuzinchoq, 1-1,2 mm uzunlikda. Lichinkasi oq rangda, 10 mm gacha uzunlikda, oyoqsiz, tanasi oldi tarafiga tomon biroz siqilgan, orqa tarafida esa 16 ta o`simtasi bor, shulardan 4 tasi aniq seziladi, so`nggi tananing `qismida 2 ta jigarrang tusdagi nafas teshiklari bor. G`umbagi sarg'ish ko'ng'ir tusda cho'zinchoq-tuxumsimon shakldagi 4-7 mm li soxta g'umbak (pupariy) larda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. ‘Himoyalangan yer sabzavotchiligi” T-2018
- 2.Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A.”Sabzavotchilik” Toshkent-2008
3. G.T.Erejepova, A.S.Abdigapbarov, N.N. Ismoilova “Sabzavotchilik”N., “Bilim”2024. O`quv qo`lanma.